BOSHLANG'ICH SINF "ONA TILI" DARSLIGIDA GRAMMATIK TOPSHIRIQLARNI KONTEKST ASOSIDA O'RGATISH USULLARI

Hazratqulov Mutallib Rashidovich
Toshkent KIUT Samarqand filiali dotsenti
E-mail:hazratqulovmutallib@gmail.com
Tel: 90 2516102

Annotatsiya. Ushbu maqolada Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida grammatik qoidalar to'g'ridan-to'g'ri berilmasdan ularning ma'lum bir qismi kontekst asosida berilishi ko'rsatib berilgan. Lingvistik bilimni kontekstda berishga oid misollar ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: kontekst, lingvistika, savodxonliki, grammatika.

Аннотация. В данной статье показано, что на уроках родного языка и грамотности чтения определенная их часть дается исходя из контекста, без прямого изложения грамматических правил. Приведены примеры передачи языковых знаний в контексте.

Ключевые слова: контекст, Лингвистика, грамотность, грамматика.

Annotation. This article identifies reading proficiency measurement and analysis skills of Primary School students based on the PIRLS International Assessment Program. The importance of PIRLS has been shown to play an important role in determining future educational and professional pathways for students.

Keywords: ability, success, logical thinking, understanding.

Kirish

Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida grammatik qoidalar to'g'ridan-to'g'ri berilmasdan ularning ma'lum bir qismi kontekst asosida berilishi o'quvchining til bilimlarini egallashning real asosi deb qaraladi. Ona tilini o'rganishning faqat grammatik qoidalarga asoslanib formal holatga o'tib qolganligini cheklash maqsadida ham matn asosida qoidalarga murojaat qilishning afzalliklari bor. Pirovard maqsad matndagi mazmunni to'liq anglab, tushunib olishlik, ikkilamchi maqsad manba sifatida o'rganilgan matn ma'lum til qoidalariga asoslanib tuzilganligi haqidagi xabarni ham bilishdan iborat.

Kontekst – yozma yoki og'zaki nutqning (matnning) to'liq mazmuni. Nutq (kontekstda)da muayyan til birligidan uning til muhiti va nutq aloqasining holatini hisobga olgan holda mazmunli foydalanish tushuniladi. Til o'zlashtirishda nutqiy vaziyatning o'rni so'z ma'nosining o'zlashtirilishi, kontekst va ma'no bilan bir bo'lsa, mazmun va lisoniy struktura grammatikaning til ta'limidagi o'rni, kommunikativ yondashuv asosida shakllanadi.

ISSN 3030-3907

Lingvistik bilimni kontekstda berishga oid misollar nutqiy vaziyatga qarab belgilanadi. Bolaning lisoniy tajribasida kontekstning o‘rni nihoyatda muhim hisoblanadi. Bola yangi so‘zga duch kelganda avval uning kontekstual ma’nosini eslaydi va anglaydi. So‘z qatnashgan kontekstlar soni oshib borishi bilan bola ongida so‘z ma’nosi konkretlashadi.

Aslini olganda, til mazmunni yetkazuvchi shartli belgi hisoblanadi. Inson muloqotga kirisharkan, muloqot maqsadi har doim mazmun bo‘lishi shart, struktura emas. Til ta’limidagi zamonaviy yondashuvlar, nazariyalar aynan shu qarash ustiga quriladi. Shuning uchun til o‘qitishda grammatik tizimga urg‘u berilishi noo‘rin hisoblanadi.

Usullar. 3-sinf o‘quvchilari uchun chiqarilgan “Ona tili” darsligining asosiy qismi o‘quvchilarning lingvistik ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan bo‘lsa-da, unda o‘quvchilarning nutqiy ko‘nikmlari, tanqidiy fikrlash va so‘zlab berish ko‘nikmlarini rivojlantirshga qaratilgan mashq va topshiriqlar ham berilgan.

O‘quvchilarning o‘qib tushunish, nutq so‘zlash va tinglab tushunish ko‘nikmlarini rivojlantirishda o‘qituvchining faolligi doimo muhim o‘rin tutadi.

“Ona tili” darsligining 14-sahifasida “Rasmli hikoya” o‘quvchilarni matn tuzish ko‘nikmalariga o‘rgatish uchun berilgan (1-rasmga qarang):



3.1-rasm. Rasmli hikoya

“Malika (maktab)dan keldi-yu, onasiga uy ishlarida yordam berdi. Keyin (sumka)sidan (daftar-kitob)larini olib, darslarini tayyorlay boshladi. Ona tilidan “hayvonot bog‘i” mavzusida matn tuzish kerak. O‘sha kuniyoq Malika dadasidan (hayvonot bog‘i)ga olib borishini iltimos qildi. Ular chipta sotib olib, bog‘ga kirib borishdi. Avval (baliq)larni, keyin (qush)larni tomosha qilishdi. So‘ngra (fil, tuya, ayiq, quyonlar, tulki)ni tomosha qilishdi. (Qush)ning rang-barang, chiroyli ekanini, (baliq)ning suvda suzishini, oq va qora (ayiq)larni, oq, kulrang va momiqqina (quyon)larni ko‘rib zavqlanishdi.

ISSN 3030-3907

(Tulki)ning quloqlari uchburchak, biroz cho‘zilgan, uchi o‘tkir, uzunligi 15 sm gacha bo‘lar ekan. Tulkining umr ko‘rish muddati 3 yildan 10 yilgacha, lekin qafasda tulki 25 yoshgacha yashashi mumkin.

Bu ma’lumotlar Malikaga chiroyli matn tuzish uchun yetarli bo‘ldi”.

Hikoya rasmli so‘zlar bilan berilgan bo‘lib, o‘quvchilar dastlab hikoyadagi rasmlarni so‘zlarga alamshtirib, hikoyaning mazmunini bilib oliashadi. So‘ng o‘qituvchi yordamida hikoyani tahlil qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Buning uchun o‘qituvchi o‘quvchilarga savollar bilan murojaat qiladi:

1.Malika maktabdan keyin nima ishlarni amalga oshirdi? Ular orasida qanday tartibni ko‘rsata olasiz?

2.Malika ona tilidan “Hayvonot bog‘i” mavzusida matn tuzishni aytganida, qanday yordamga muhtoj edi?

3.Matnda hayvonlar qanday tasvirlangan? Qaysi hayvonlarning tashqi ko‘rinishi haqida ko‘proq ma’lumot berilgan va bu tasvirlar matnni qanday boyitadi?

4.Tulkining quloqlari haqida qaysi ma’lumotlar keltirilgan? Ularning qanday o‘ziga xos xususiyatlari mavjud?

5.Hayvonlar haqidagi tasvirlarda rang-baranglik va chiroylilik qanday ishlatilgan?

6.Hayvonot bog‘iga tashrif buyurganida Malika qaysi hayvonlarni tomosha qildi? Bu hayvonlarning qaysi biri haqida ko‘proq ma’lumot berilgan?

7.Tulki haqida qanday ilmiy ma’lumotlar keltirilgan? Bu ma’lumotlar qanday foydali bo‘lishi mumkin?

8.Matndagi voqealar qaysi elementlarni birlashtiradi: bilim, tajriba yoki ijodiy fikrlar?

9.Hayvonot bog‘iga tashrif buyurish Malika uchun qanday o‘zgartiruvchi tajriba bo‘lgan?

10.Agar siz Malika o‘rnida bo‘lsangiz, hayvonot bog‘iga tashrifingizda qanday hayvonlarni ko‘rishni xohlardingiz va nima uchun?

Natijalar. O‘quvchilar savollarga javob berib, matn mazmuni bilan yanada aniq tanishadilar. O‘qituvchi o‘quvchilardan biror joyga – mehmonga, safarga, hayvonot bog‘iga borgan paytidagi taassurotlarini ham so‘rashi mumkin. Keyin o‘qituvchi o‘quvchilarning grammatika – tilga oid bilimlarini mustahkamlash uchun savollar berishi mumkin:

1.Matnda qanday nomlar ishlatilgan? (Masalan, Malika, baliq, qush)

2.“Baliq”, “qush” kabi so‘zlar qanday holatda ishlatilgan? (Masalan, ko‘plik yoki birlik shaklida)

3.Matnda qanday fe’llar ishlatilgan? Ular qanday harakatlarni ifodalaydi? (Masalan, keldi, yordam berdi, tomosha qilishdi)

ISSN 3030-3907

4.”Malika maktabdan keldi-yu” jumlasida “yu” qo‘shimchasi nima uchun ishlatilgan? (Masalan, harakatning keyin amalga oshganligini bildiradi)

5.”Ular chipta sotib olib, bog‘ga kirib borishdi” jumlasida fe’lning qanday shakli ishlatilgan? (Masalan, o‘tgan zamon, ko‘plik)

6.”Tulki” so‘zi qanday ishlatilgan? Bu so‘zda qanday yozish qoidalari mavjud? (bosh harf bilan boshlanishi, tarkibi)

7.“Hayvonot bog‘i” so‘zida qanday maxsus belgilar (apostrof) ishlatilgan? Ularni qanday to‘g‘ri qo‘llash kerak?

8.”Chiroyli” so‘zi qanday talaffuz qilinadi? “ch” va “r” tovushlarining o‘rtasida qanday farq bor?

9.”Ona tilidan hayvonot bog‘i mavzusida matn tuzish kerak” jumlasida qanday so‘z birikmasi ishlatilgan? (“ona tili”, “hayvonot bog‘i”)

10.“Qushning rang-barang, chiroyli ekanini...” jumlasida sifatlar qanday ishlatilgan? Rang-barang va chiroyli belgilaari nimani anglatadi?

Bu savollar orqali o‘quvchilarga grammatikani, imlo qoidalarini va matn tuzishni o‘rganishga yordam berish mumkin. Har bir savol matnni chuqurroq tushunish va uning asosidagi grammatika qoidalarini mustahkamlashga qaratilgan.

Matn tahliliga murakkabroq yondashadigan bo‘lsak, Malikaning hayvonot bog‘iga tashrifi va u erda ko‘rgan hayvonlari haqida yozgan matni 170 ta so‘zdan iborat bo‘lib, grammatik tahlil qilishda bir nechta jihatlarga e’tibor qaratish mumkin bo‘ladi:

-*Malika*, *ona*, *sumka*, *darslar*, *tashrif*, *chipta*, *hayvonot bog‘i*, *baliq*, *qush*, *fil*, *tuya*, *ayiq*, *quyon*, *tulki* – bu so‘zlar matnda ko‘p ishlatilgan. Ular odamlar, narsalar, joylar, hayvonlar va hodisalarni ifodalovchi so‘zlar sifatida tahlil qilinadi.

-*keldi*, *berdi*, *tomosha qilishdi*, *ko‘rib zavqlanishdi* – bu fe’llar o‘tgan voqealarni tasvirlashda ishlatilgan.

-*tomosha qilmoqda*, *boshladi* – voqea davomida bajarilayotgan ishlarni bildiradi.

-*chiroyli*, *rang-barang*, *aqlli*, *tez*, *tez-tez* – bu so‘zlar fe’llarga bog‘lanib, harakatning qanday amalga oshirilganini yoki qanday holatda ekanligini ifodalaydi.

Malika hayvonot bog‘iga tashrifini va o‘sha kun o‘rganilgan materialni yoritganida grammatik jihatdan yaxshi tuzilgan matn yaratdi. Matnda o‘zaro bog‘langan jumlalar, sifat va fe’l ishlatishning turli shakllari, hamda ko‘plik va sonlar bilan ishlashni aniq ko‘rsatdi. Bu matnni o‘rganish grammatikani amalda tushunishga yordam beradi.

Matn asosida berilgan so‘zlarning to‘g‘ri yozilishini bilib olish o‘quvchilarning imloviy savodxonligini oshiradi. Buuning uchun o‘qituvchi matn tahlili paytida

ISSN 3030-3907

ba’zi yozilishi qiyin so‘zlarni yozib berishi o‘quvchilarning to‘g‘ri yozishlariga yordam beradi:

maktab – maktap
daftar-kitob – daptar-kitop
tomosha – tomasha
zavqlanishdi – zovqlanishdi
chiroyli – churoyli
ko‘rib – ko‘rub
umr ko‘rish – umur ko‘rish.

Boshlang‘ich ta’lim 3-sinf o‘quvchilari uchun “Ona tili” darsligining 16-sahifasida matnni o‘rganish uchun 10-mashq berilgan. Mashq shartida “Qanday?”, “Qanaqa?”, “Nechta?”, “Qancha?” co‘rog‘iga javob bo‘ladigan so‘zlarni topib yozish so‘ralgan:

“Oq ayiq Arktikada, sovuqda yashaydi. Tanasi qordek oppoq jun bilan qoplangan. Erkak ayiqning uzunligi taxminan uch metr, og‘irligi olti yuz sakson kilogramm bo‘lsa, urg‘ochi ayiqniki ikki metr, og‘irligi esa ikki yuz yetmish kilogramm bo‘ladi.

Yangi tug‘ilgan oq ayiq bolasi engil, to‘rt yuz ellik gramm bo‘ladi. Oq ayiq suvda chaqqon suzadi. Uning yana bir xususiyati – u uzoqdan hidni yaxshi sezadi”.

O‘qituvchi matnni o‘qib bergach, avval matn mazmuni bilan o‘quvchilarni tanishtirishi, o‘quvchilarning matnni tushunish darajalarini aniqlab olishi maqsadga muvofiq sanaladi. Bu jarayon suhbat tarzida tashkillashtiriladi:

1.Oq ayiq qayerda yashaydi? Uning yashash joyi qanday xususiyatlarga ega?

2.Arktikada yashovchi boshqa hayvonlar haqida nima bilasiz? Ularning yashash joyi oq ayiqqa qanchalik o‘xshaydi?

3.Oq ayiqning tanasi qanday? U qanday xususiyatlarga ega?

4.Yangi tug‘ilgan oq ayiq bolasi qanday bo‘ladi? Uning og‘irligi qancha?

5.Oq ayiqning suzishi haqida qanday ma’lumotlar berilgan? U qanday suza olishiga qanday tavsiflar keltirilgan?

6.Oq ayiqning hidni sezish qobiliyati haqida nima deya olasiz? U qanday vaziyatlarda bu qobiliyatini ishlatishi mumkin?

7.Oq ayiqni Arktikada sovuqda yashashga moslashtirgan qanday xususiyatlar mavjud?

8.Oq ayiq junining qordek oppoq bo‘lishi nima uchun muhim? Bu unga qanday yordam beradi?

9.Oq ayiqning sovuq iqlimga moslashgan xususiyatlari haqida qanday fikrdasiz?

ISSN 3030-3907

10.Arktikada yashaydigan boshqa hayvonlar bu muhitga qanday moslashgan bo‘lishi mumkin?

11.”Tanasi qordek oppoq jun bilan qoplangan” jumlasidagi "qordek oppoq" ifodasi qanday ma’no beradi? Oq ayiq junining rangini qanday tasvirlaysiz?

12.Oq ayiqning “hidni yaxshi sezishi” haqida qanday tasavvurga ega bo‘ldingiz? Bu uning hayotida qanday rol o‘ynaydi?

13.Oq ayiqning suzish va hid sezish qobiliyati uning yashash joyida qanday yordam beradi?

14.Oq ayiqning boshqa hayvonlardan farqli o‘laroq, bu xususiyatlar qanday afzalliklar yaratishi mumkin?

15."Yangi tug‘ilgan oq ayiq bolasi yengil, to‘rt yuz ellik gramm bo‘ladi" jumlasida qanday ma’lumotlar keltirilgan? Oq ayiq bolasi qanday o‘zgarishlarni boshdan kechiradi?

16."Oq ayiq suvda chaqqon suzadi" jumlasini qanday tushunasiz? “Chaqqon” so‘zi qanday ma’noni anglatadi?

17.Oq ayiqning suvda chaqqon suzishi va hidni sezishi insonlar uchun qanday foydali xususiyat bo‘lishi mumkin edi?

Grammatikani kontekst asosida o‘rgatish – bu o‘quvchilarni grammatik qoidalarni tabiiy ravishda va amaliy ravishda o‘rgatish usulidir. Bu yondashuvda grammatika qoidalari matn yoki muloqot kontekstida o‘rganiladi, bu esa o‘quvchilarni o‘rganilgan materialni haqiqiy hayotdagi vaziyatlarga moslashtirishga yordam beradi.

Muhokama. O‘quvchilar grammatika qoidalarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri matn yoki muloqot asosida o‘rganishadi, bu esa ularni kundalik hayotda qo‘llashda yordam beradi. Grammatikani yodlash o‘rniga, ularni amaliy kontekstda tushunish osonroq bo‘ladi. O‘quvchilar grammatika qoidalarini haqiqiy vaziyatlarda qo‘llashni ko‘rganlarida, ular yanada qiziqish bilan o‘rganadilar. O‘quvchilar grammatik qoidalarni o‘zlari kashf etadilar va amaliyotda qo‘llashni o‘rganadilar. Matn asosida grammatik qoidalarni tushunadilar. Biror matnni o‘qib, undagi jumlalarni tahlil qilish asnosida unda ishlatilgan grammatik tuzilmalarni aniqlaydilar. O‘qituvchi matnni taqdim etadi va o‘quvchilarga matndan fe’l, sifat, olmosh yoki boshqa grammatik qoidalar bilan bog‘liq misollarni topishni so‘raydi. Masalan, "Oq ayiq Arktikada, sovuqda yashaydi. Tanasi qordek oppoq jun bilan qoplangan”. Bu jumlada qanday harakatni bildiradigan so‘zlar ishlatilgan? Harakatni bildiradigan so‘zlarnini qanday tushunasiz?

Grammatikani kontekst asosida o‘rgatishning samarali usullari quyidagicha:

1.Rejalashtirish. O‘quvchilarni grammatikani amaliyotda qo‘llash uchun yaxshi rejalashtirilgan mashqlar bilan ta’minlash zarur.

ISSN 3030-3907

2.Amaliyotga yo‘naltirish. Grammatikani o‘rganish jarayonida o‘quvchilarni ko‘p amaliy mashqlar orqali ishtirok etishga undash.

3.Izohli yondashuv. Grammatika qoidalarini tushuntirishda izohlar, misollar va tushuntirishlarni berish.

4.Boshqalar bilan baham ko‘rish. O‘quvchilarni o‘rgangan grammatika qoidalarini boshqalar bilan ishlashda qo‘llashga undash.

Grammatikani matn asosida o‘rgatish, o‘quvchilarga nafaqat qoidalarni yodlashni, balki ularni amalda qanday ishlatishni o‘rgatadi. Bu yondashuv grammatikani o‘rgatishda samarali va ta’sirchan metod hisoblanadi.

Matn asosida ona tili qoidalarini o‘rgatish, o‘quvchilarning grammatika va imlo ko‘nikmalarini mustahkamlashga yordam beradi. O‘quvchilarga ona tili qoidalarini o‘rgatishda matnni tahlil qilish va o‘rgatishdan foydalanadi. “Oq ayiq” matnini tahlil qilishda quyidagi qoidalarga e’tibor qaratish mumkin:

-“o‘qituvchi o‘quvchilarga matndan turli ismlarni ajratib olishni so‘raydi. Misol uchun, “Oq ayiq”, “Arktika”, “jun”, “suv”, “bolasi”, “hid” kabi so‘zlar nomlar sifatida ishlatilgan;

-harakat yoki holatni ifodalaydigan so‘zlarni topish. Misol uchun, “yashaydi”, “qoplangan”, “bo‘ladi”, “suzadi”, “sezadi” kabi fe’llarni aniqlash va ularning qanday ishlatilishini tushuntirish;

-narsalarning belgi-xususiyatlarini bildiradigan so‘zlarni topish. Masalan, “oq”, “sovuq”, “chaqqon” kabi sifatlar hayvonning xususiyatlarini ta’riflaydi. O‘quvchilarga sifatlarni topish va ularning ma’nolarini tushuntirish muhim;

-“oq ayiq” so‘zidagi “oq” narsa belgisining yozilishi, shuningdek, “suvda chaqqon suzadi” jumlasida belgi va harakatni qanday birlashtirishni tushuntirish;

Bu usullar boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ona tili qoidalarini mustahkamlashga yordam beradi, shuningdek, ular matnni tushunish va o‘z fikrlarini to‘g‘ri ifodalashni o‘rganadilar.

Xulosa

Ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida grammatik qoidalarni kontekst asosida o‘rgatish o‘quvchilarning lingvistik bilimlarini real hayot bilan bog‘lab, ularning tahliliy va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Grammatik tizimga ortiqcha urg‘u bermasdan, matn orqali qoidalarni tushuntirish bolalarning tilni o‘zlashtirish jarayonini tabiiy va mazmunli qiladi.

O‘quvchilar uchun ishlab chiqilgan darsliklarda kontekst asosida til o‘rgatish usullari samarali tatbiq etilgan bo‘lib, ayniqsa, rasmli hikoyalar va muhokama savollari orqali o‘quvchilarning nutqiy ko‘nikmalari shakllantiriladi. Matndagi tasvirlar, hayvonot bog‘i haqidagi ma’lumotlar va savollar orqali bolalar nafaqat til

ISSN 3030-3907

qoidalarini bilib oladilar, balki hayvonlar haqida ilmiy bilimlarga ega bo‘ladilar, kuzatuvchanlik va mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradilar.

Shunday qilib, ona tilini o‘rgatishda kontekstual yondashuv qo‘llanilganda, o‘quvchilar nafaqat tilni o‘rganadilar, balki real hayotiy vaziyatlarda uni qo‘llashni ham o‘zlashtiradilar. Bu esa ularning o‘qib tushunish, yozma va og‘zaki nutq ko‘nikmalarini mustahkamlashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Aydarova U. B. O‘qish savodxonligi. Umumiy o’rta ta’lim maktablarining 3-sinfi uchun darslik (2-qism) –Toshkent: “Novda edutainment”, 2023. – 62-b.
2.Toirova M.E. O‘qish savodxonligi. Darslik. –Toshkent. Novda Edutainment. -2023.-80 bet.
3.Husanboyeva.Q, Hazratqulov.M, Xolsaidov F. Ona tili va o‘qish savodxonligiga o‘rgatish metodikasi. Darslik. -Toshkent. Innovatsion-ziyo, 2022.252 bet.
4.https://aniq.uz/uz/yangiliklar/ 4k-modeli-zamonaviy-talimga-innovasion-yondashuv

ISSN 3030-3907